


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022 yilning 1 aprel holatiga 21 836 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2021 yilning shu davriga nisbatan 110,8 foizga ko‘pdir).



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2022 yilning 1 aprel holatiga (jamiga nisbatan foizda)
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 32,5 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida (27,7 %), sanoat sohasida (19,2 %) va qurilishda (5,0 %) tashkil etilgan.

2022 yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 1 417,2 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 78,6 %) o‘zlashtirildi va 2021 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘shish sur‘ati 93,8 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 595,8 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 96,7 %) va 2021 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,4 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1 249,8 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 54,5 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 995,9 mlrd. soʻmlik koʻrsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 57,0 %) 2021 yilning yanvar-martiga nisbatan oʻsish surʻati 109,5 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 1 866,5 mlrd. soʻmni (jami chakana tovar aylanmasining 76,9 %) 2021 yilning yanvar-martiga nisbatan oʻsish surʻati 103,9 foizni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 53,0 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 44,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 101,3 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 83,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;


– avtomobil transportida 3 697,8 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 85,5 %) 2021 yilning yanvar-martiga nisbatan oʻsish surʻati 100,4 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 26 407,0 ming yoʻlovchi tashilib (umumiy yoʻlovchi tashishdagi ulushi 98,1 %) 2021 yilning yanvar-martiga nisbatan oʻsish surʻati 100,9 foizni tashkil qildi;

2022 yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 72,5 foizni, sanoatda – 54,5 foizni, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 99,7 foizni, qurilishda – 96,7 foizni, eksportda – 44,2 foizni tashkil qilgan.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi






Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)

2022 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (245,8 mlrd. so'm), G'allaorol (605,6 mlrd. so'm), Paxtakor (70,3 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2022 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (249,5 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (158,2 mlrd. so'm), G'allaorol (112,6 mlrd. so'm) va Zomin (110,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2022 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>
Jizzax viloyati	54,5	96,7	57,0	99,7
<i>shahar:</i>				
Jizzax	36,9	97,2	32,7	95,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	31,5	100,0	78,5	100,0
Baxmal	100,0	100,0	66,6	99,9
G'allaorol	98,7	100,0	78,8	99,8
Sharof Rashidov	49,6	100,0	81,4	99,9
Do'stlik	8,5	100,0	71,4	100,0
Zomin	52,6	83,2	73,0	99,8
Zarbdor	18,1	98,4	74,9	99,9
Zafarobod	28,6	98,7	82,2	99,9
Mirzacho'l	100,0	85,2	63,9	99,9
Paxtakor	53,8	100,0	82,3	100,0
Forish	81,4	100,0	81,8	99,8
Yangiobod	100,0	100,0	71,6	99,9

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Do'stlik (8,5 %), Zafarobod (28,6 %), Zarbdor (18,1 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal (100 %), Mirzacho'l (100 %), Yangiobod (100 %) tumanlarida nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Zomin tumanida (83,2 %), Mirzacho'l tumanida (85,2 %) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (32,7 %), Mirzacho'l tumani (63,9 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.